


1. QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASIDA OLIY TOIFALI ILMIY VA ILMIY PEDAGOGIK KADRLARNI TAYYORLASH

Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta‘lim jamiyatning oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlarga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirish, shaxsning ijodiy ta‘lim, kasb-hunar manfaatlarini qanoatlantirishga qaratilib, oliy o‘quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot muassasalarida (katta ilmiy xodim-izlanuvchilar instituti, mustaqil izlanuvchilik) doktoranturada ta‘lim olish, shuningdek, mustaqil tadqiqotchilik faoliyatini tashkil etish asosida amalga oshiriladi.

Doktorantlar tayyorlovchi muassasalar soni, birlik (2012-2016 yillar) (1-rasm)


1-rasm



Doktorantlar tayyorlovchi muassasalar (katta ilmiy xodim izlanuvchilar institutlari) soni 2016 yilga kelib 5 tani tashkil etdi va 2012 yildagiga nisbatan 1,2 barobarga oshdi. 2016 yilda doktorantlarni tayyorlovchi muassasalarning 2 tasini ilmiy institutlar, 3 tasini oliy ta‘lim muassasalari tashkil qildi.

Doktorantlar soni (2012-2016 yillar) (2-rasm)

2-rasm



O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 24 iyuldagi PF-4456 sonli Farmoniga asosan dissertatsiya himoya qilish va fan doktori ilmiy darajasini berish bo‘yicha oliy o‘quv yurtidan keyingi

ta'limning bir bosqichli tizimini joriy qilindi, bu katta ilmiy xodim izlanuvchilar sonining ortishiga ham sabab bo'ldi. Xususan, ushbu muassasalarda doktorant sifatida o'qiyotganlar soni 2016 yilda 2012 yildagi sonidan 1.6 barobardan ortiqroqqa oshdi va 26 nafardan 44 nafargacha yetdi.


O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 16 fevraldagi PF-4958 sonli Farmoniga binoan oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash va attestatsiyadan o'tkazish tizimining sifati va samaradorligini tubdan oshirish, oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim sohasini yanada takomillashtirish, ilmiy-tadqiqot faoliyatida yoshlarning intellektual salohiyatini har tomonlama namoyon etish imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida oliy o'quv yurtidan keyingi ta'limning ikki pog'onali shakli dissertatsiya himoya qilish va tegishli fan tarmog'i bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini berishni nazarda tutuvchi "tayanch doktorantura" va dissertatsiya himoya qilish va tegishli fan tarmog'i bo'yicha fan doktori (Doctor of Science) ilmiy darajasini berishni nazarda tutuvchi "doktorantura" tizimini joriy qilindi

2. ILMIY-TADQIQOT VA TAJRIBA-KONSTRUKTORLIK ISHLANMALARINING BAJARILISHI

Ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalari tadqiqotlar yoki amaliy tajribalar natijasida olingan va yangi materiallar, mahsulotlar, jarayonlar, qurilmalar, xizmatlar, tizimlar yoki usullarni yaratishga yo'naltirilgan mavjud bilimlarga asoslangan tizimli ravishda amalga oshiriladigan ishlar kiradi. Ishlanmalar tarkibiga konstruktorlik, loyihaviy va texnologik ishlar kiradi.

Ilmiy tadqiqot tajriba konstruktorlik ishlanmalarini bajargan tashkilotlar dinamikasi (2012-2016 yillar) (3-rasm)

3-rasm



Ilmiy tadqiqot tajriba konstruktorlik ishlanmalari bilan shug'ullanadigan tashkilotlar soni 2016 yilda 2013 yilga nisbatan 2 taga ko'paydi va 23 tani tashkil etdi. Ular tomonidan o'z kuchi bilan bajarilgan ilmiy tadqiqot tajriba konstruktorlik ishlari hajmi 2016 yilda 9,4 mlrd. so'mga yetdi va 2013 yilga nisbatan 2,4 barobarga oshdi.

2016 yilda fan sohalari bo'yicha ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalariga xarajatlar, mln. so'm (1-jadval)

1-jadval

	Jami	Shu jumladan:					
		tabiiy fanlar	texnika fanlari	tibbiyot fanlari	qishloq xo'jaligi fanlari	ijtimoiy fanlar	gumanitar fanlar
Jami	11161,8	3573,5	2968,7	104,5	1522,9	852,1	2140,1

Ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalarni bajargan ilmiy xodimlar (2000-2016 yillar) (2-jadval)

2-jadval

	2013 y.	2014 y.	2015 y.	2016 y.
Ilmiy xodimlar – jami (oliy ta'lim muassasalarining ilmiy-pedagogik xodimlarini qo'shgan holda)	1806	1834	1838	1826
shu jumladan ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalarni bajargan tadqiqotchi-mutaxassislar	466	469	476	558
ulardan ilmiy darajaga ega bo'lganlar:				
fan doktori	40	33	23	26
fan nomzodi	86	80	91	103

Ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalari bilan band bo'lgan tadqiqotchi mutaxassislar soni 2016 yilda 558 nafarni tashkil etdi.


KORXONA VA TASHKILOTLARNING INNOVATSION FAOLİYATI

Mamlakatimizda ishlab chiqarishni modernizatsiyalash bo'yicha olib borilayotgan islohotlar nafaqat korxonalarda ishlatiladigan texnika va texnologik jarayonlarni yangilashni, balki boshqaruv va hisobini tashkil etishda innovatsion yondashuvni talab etadi. Shu nuqtai nazardan korxonalarda ishlab chiqarilgan mahsulotlarni baholashning amaliyotda qo'llaniladigan ayrim jihatlarini tadqiq etish katta ahamiyatga ega.



**Innovatsion mahsulotlar, ishlar, xizmatlar hajmi va xarajatlari dinamikasi
(2008-2016 yillar) (4-rasm)**

4-rasm



Innovatsion mahsulotlar, ishlar, xizmatlar hajmi 2016 yilda 1957,1 mlrd. so‘mni tashkil qildi. Ushbu ko‘rsatkich 2015 yilga nisbatan 10,6 barobar, 2008 yilga nisbatan 1030 barobarga ko‘paygan. Innovatsiyalarga xarajatlar 2008 yilga nisbatan 18,6 barobarga ko‘paygan bo‘lsa, 2015 yilga nisbatan 97 foizga kamaygan.

2016 yilda o‘z kuchi bilan ishlab chiqarilgan innovatsion mahsulotlar, ishlar, xizmatlar hajmining asosiy qismi Nukus shahriga (95,8 foizi), Xo‘jayli tumani (2,1 foizi), to‘g‘ri kelmoqda, qolgan 2,1 foizi respublikaning boshqa tumanlar hissasiga to‘g‘ri keladi.

2016 yilda moliyalashtirish manbalari bo‘yicha texnologik, marketing va tashkiliy innovatsiyalarga xarajatlar (3-jadval)


3-jadval



	2016y.
Texnologik, marketing va tashkiliy innovatsiyalarga xarajatlar	108,1
shu jumladan moliyalashtirish manbalari bo‘yicha:	
tashkilotning o‘z mablag‘lari	7,8
xorijiy kapital	
tijorat banklari kreditlari	8,8
boshqa mablag‘lar	91,5

Innovatsiyalarning moliyalashtirish manbalari, foizda (5-rasm)

5-rasm



2016 yilda texnologik, marketing va tashkiliy innovatsiyalarga xarajatlarning 7,2 foizi (7,8 mlrd.so'm) tashkilotning o'z mablag'lari hisobidan, 8,2 foizi (8,8 mlrd.so'm) tijorat banklari kreditlari, 84,6 foizi (91,5 mlrd.so'm) boshqa mablag'lar hisobidan moliyalashtirilgan.

2-jadval: Joriy qilingan innovatsiyalar soni (2016 yil) (4-jadval)


4-jadval

	Texnologik innovatsiyalar	Shu jumladan:		Marketing innovatsiyalar	Tashkiliy innovatsiyalar
		mahsulotlar bo'yicha innovatsiyalar	jarayonlar bo'yicha innovatsiyalar		
Jami	32	15	17	5	4
shu jumladan:					
o'z kuchi bilan	32	15	17	5	4

2016 yilda 24 ta korxonalar va tashkilotlar tomonidan 32 turdagi texnologik innovatsiya joriy etildi.


Innovatsiya joriy qilgan tashkilotlar va innovatsiyalar soni (2016 yil) (6-rasm)

6-rasm



2016 yilda o'z kuchi bilan ishlab chiqarilgan innovatsion mahsulotlar, ishlar, xizmatlar hajmining innovatsiyalarni o'zlashtirilgan muddatlari bo'yicha taqsimlanishi, foizda (7-rasm)

7-rasm



2016 yilda o'zlashtirilgan innovatsiyalar jami ishlab chiqarilgan innovatsion mahsulotlar, ishlar, xizmatlar hajmining 0,6 foizini (11,1 mlrd.so'm) tashkil etdi, ishlab chiqarilgan innovatsion mahsulotlarning katta qismi (mos ravishda 97 foiz) 2014-2015 yillarda o'zlashtirilgan innovatsiyalar hissasida to'g'ri kelgan.